

MILLIY QADRIYATLARNING TILSHUNOSLIKKA OID FANLARNI O'QITISHDA TUTGAN O'RNI

*Namangan davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
1-bosqich magistranti **Baxridinova Nigora**
bahriddinovanigora02@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda yoshlarimiz dunyoqarashining o'sishida va rivojlanishida milliy qadriyatlarimizning o'ri qanchalik beqiyos ekanligi hamda yosh- avlodga ta'lim-tarbiya berishda, jumladan, filologik ta'limda bizning milliy qadriyat-an'analarimiz ahamiyatini anglatish borasida fikrlar borgan. Til ta'limi jarayonida talabalarga milliy qadriyatlarni singdirish xususida bir qancha mezonlar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: milliy qadriyat, an'ana, tarbiya, ta'lim, filologik ta'lim, lingvistika, tilshunoslik, til va jamiyat, insoniy qadriyat, ijtimoiy faollik, ma'naviyat, milliy g'urur, milliy ong, aniq fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar, tabiiy fanlar.

Bugungi yoshlarimizning dunyoqarashi, kamoloti, uning muntazam rivojlanib borishida ibrat-o'rnakning o'ri beqiyosdir. Bu esa, ma'naviyat, ma'rifat, madaniyat, milliy qadriyatlar, milliy g'urur, vatanparvarlik tuyg'ulariga asoslangan yoshlarni tarbiyalashni kafolatlaydi. Hozirgi kunda kelajak-avlod tafakkurini o'zgartirish, ularni har tomonlama yetuk va komil inson sifatida milliy qadriyatlar asosida iymonli-insofli, to'g'riso'z-diyonatli, adolatli qilib tarbiyalash muhim vazifalardan sanaladi. Shaxsning tarbiyalanganligi shaxsni tashqi dunyoga va o'z hayotiga; insoniy qadriyatlarga; jamiyatga; Vatanga, xalqqa, tarixga; hayotning muammo va qiyinchiliklariga; ijtimoiy faollikka; o'z imkoniyatlariga bo'lgan munosabatlarida ifodalanadi[1.36]. Bunday vazifalarni bajarish uchun ta'lim-tarbiya jarayonining samarali yo'llarini topish alohida ahamiyatga ega. Jumladan, milliy qadriyat, milliy g'urur, milliy iftixor g'oya va tuyg'ularini singdirish va rivojlantirish asosida yuqoridagi masalaning yechimini topish maqsadga muvofiqdir.

Tariximizdan ma'lumki, yosh-avlodga ta'lim berishda turli ta'lim va tarbiya vositalaridan foydalanib kelingan. Bunday vositalarga milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'ana, rivoyat, hadislarni misol keltirish mumkin. Bu vositalar yosh avlodda yuqori darajada ma'naviyat shakllanishiga asos bo'lib, asrlar davomida insonlardagi ishonch hissini mustahkamlab, ularni yuksaltirib, hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tish uchun saboq vazifasini bajargan. "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi" deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi[2.505].

Milliy qadriyatlarga hurmat, milliy g'urur, milliy ongning uyg'onishi va shakllanishi o'zlikni anglashdan boshlanadi. O'zlikni anglash deganda, millati, dini, urf-odatini, yashash tarzini saqlab qolish, namoyon etish, dunyoda o'zligini ko'rsata olish imkoniyatlari tushuniladi.

Ta'lim jarayoniga kelsak, o'zligini anglagan, o'z milliy tuyg'u-iftixoriga ega bo'lgan, milliy-umuminsoniy qadriyatlarga hurmatda bo'ladigan, ularni asrab-avaylaydigan yoshlarni yetishtirish uchun har bir fanni milliy qadriyat tushunchasi bilan bog'lab o'tmoq lozim.

Oliy ta'lim tizimida talabalarga aniq fanlar, tabiiy fanlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar tarmoqlarga bo'lingan holda, ta'lim yo'nalishlariga mos ravishda o'qitiladi. Shular ichidan ijtimoiy-gumanitar fanlar tarkibiga kiruvchi filologiya ya'ni tilshunoslik fanlari alohida ahamiyatga ega. Til va milliylik, milliy qadriyat tushunchalari o'zaro chambarchas bog'liqdir. Ular bir-birisiz yashay olmaydi, bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi. Inson borki, unga til mansub. Insonlarning gapirish uslubiga, nutqini tashkil etuvchi elementlarga qarab, bu insonga baho berish odat tusiga kirgan, chunki inson nutqiga qarab biz uning kimligini, qaysi sohaga mansubligini, jamiyatning tabaqalanishidagi o'rnini payqaymiz. Uning jamiyatdagi mavqeyi, intellektual darajasini, ijtimoiy maqomini, bilim salohiyatini, qaysi kasb egasi ekanligini ayta olamiz[3.4]. Shunday ekan tilshunoslik til va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, til va tafakkur, tilning jamiyatdagi o'rne, tilning ichki tuzilishi, tasnifi, uni tahlil qilish usullarini o'rganuvchi fandır.

Oliy ta'limda tilshunoslikka oid "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "Tilshunoslikka kirish", "O'zbek tili tarixi", "Turkiy tillarnin qiyosiy-tarixiy grammatikasi", "Tilshunoslik nazariyasi", "Pragmalingvistika", "Til kompotentligini rivojlantirish" kabi bir qancha fanlar o'qitiladi. Shu fanlarni o'qitish bilan bir qatorda, ta'lim jarayonida biz talabalarga milliy qadriyat tushunchasini singdirishimiz, uning o'rne va ahamiyati beqiyos ekanligini anglatmog'imiz darkor.

Filologik ta'lim jarayonida talabalarga milliy qadriyatlarni singdirish, uning o'rne va ahamiyatini anglatish borasida bir qancha mezonlarga tayanamiz. Ularga quyidagilarni kiritishimiz mumkin: Vatandan faxrlanish, Vatanimiz tarixi, uning o'tmishi haqida bilish, mard va jasur qahramonlariga qiziqish, Vatan haqida tushunchalarni boyitish, uning moddiy-ma'naviy boyliklarini asrab-avaylash, Vatanga muhabbat, Vatan xizmatiga shay turish, Vatanga jonkuyarlik, uning dovyurak himoyachisiga aylanish, Vatan ravnaqi uchun hissa qo'sha oladigan tadbirlarda qatnashish, Vatanga fidoyi inson bo'lish; xalqning milliy qadriyatlarini, an'ana va urf-odatlarini bilish va amal qilish, umuminsoniy qadriyatlar, sharqona urf odatlar va ona tiliga hurmat bilan qarash, o'zbek xalqi san'atiga hurmatda bo'lish, sharq allomalarining o'gitlarini bilish va ularga amal qilish; sharqona odob qoidalariga rioya qilish, salomlashish qoidalari, kattalarga hurmatda, kichiklarga izzatda bo'lish; do'stlik odobi,

poklik, xushmuomalalik, o'g'il va qizlar odobiga rioya etish, sharqona milliy muomalaga amal qilish, oilaviy turmush odobiga rioya qilish; jamoat joylarida o'zini tutish, odob me'yorlarini anglay olish, ijobiy xulq na'munalari, o'z burchini to'g'ri anglash, adolatsizlikka yo'l qo'ymaslik, kishilar bilan to'g'ri munosabatga kirisha olish; milliy g'oya, mustaqil yurt, mustaqil O'zbekiston tushunchalari haqida tasavvurga ega bo'lish, O'zbekistonning jahon miqyosidagi mavqeyini anglash, Davlat tilini hurmat qilish va boshqalar.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, til bor yerda qadriyat ham albatta bo'ladi. Til rivoj topsa, milliy qadriyatlarimiz ham mustahkamlanadi, bardavom bo'ladi. Milliy an'ana va qadriyatlar orqali jamiyat o'zligini topadi. Bular go'yoki zanjirdek. Bir-biriga ulanib ketaveradi. Shu bois ta'lim jarayoniga, ayniqsa, lingvistik ta'lim jarayonlariga milliy qadriyat tushunchalarini olib kirishimiz, dars jarayonlarida mavzular bilan birgalikda bu tushunchalar ahamiyatini va o'rnini singdirishimiz darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'.J.Yo'ldoshev. Umumiy pedagogika. -T.: "Fan va texnologiya", 2017. -B.36
2. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. -Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -B.505
3. M.T.Irisqulov. Tilshunoslikka kirish. -T.: "Yangi asr avlodi", 2009. -B.4
4. Sobirova M. O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi. Darslik. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tavsiya etilgan. – Namangan. ARJUMAND MEDIA, 2023.